

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2021 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Nergis Biray, Süveyda Şahin

Özbekçede Kullanılan Türkçe Kökenli Hastalık Terimleri (Baş Bölgesi).....6

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik.....30

Sharif Yoqubov

Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida.....54

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Islom renessansida Markaziy Osiyo turkiylarining roli.....67

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Temuriylar renessansida musiqa san'ati.....91

Fatih Gür

Türk kültüründe renkler102

CONTENT

Linguistics

Nergis Biray, Suveyda Shahin

Disease Terms of Turkish Origin used in Uzbek (Head Region).....6

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Herman Vamberi is a researcher of classical literature.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat and Jadidism in Bukhara.....30

Sharif Yokubov

Besutun's works as interpreted by Alisher Navo'i.....54

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

The role of the Turks of Central Asia in the "Islamic Renaissance"67

Art

Oqilkhon Ibrohimov

Musical art of the Timurid Renaissance.....91

Fatih Gur

Colors in Turkish culture.....102

Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik

Zaynabidin Abdirashidov¹

Abstrakt

Abdurauf Fitrat Turkiston jadidchiligining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri sifatida tan olingan. Uning dunyoqarashining markazida ijtimoiy erkinlik g'oyasi va demokratik davlatning yangi konsepsiyasi yotadi. Fitratning islomiy g'oyalarga qiziqishi uning musulmon Sharqiga bo'lgan qarashlari bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy jadidshunoslikdagi muammolar va ularni tahlil qilish, Turkiston jadidchiligi, xususan, Fitrat hayoti, ijodi va faoliyati bilan bog'liq hal qilinmagan ko'plab muammolar yoki bahslar bor degan xulosaga kelish mumkin. Birlamchi manbalarni tahlil qilishdan olingan xulosalar jadidchilik, xususan, Fitratshunoslikda ma'lum o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aynan shu o'zgarishlar bizga Fitratning ilk faoliyat davri, xususan, Istanbuldagi faoliyati haqida aniq javoblar berish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *Turkiston, Jadidchilik, Fitrat, Buxoro, Istanbul.*

Kirish

Sharq musulmon dunyosida keng tarqalgan islohotchilik harakati XX asr boshlariga kelib Turkistonda ham yoyila boshladi. Ushbu harakat faoliyati jamiyatning, aksariyat holatda, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ko'proq tegishli bo'ldi. Shuningdek, bu islohotchilik harakati bosma sohasiga (kitobat, davriy nashrlar), ta'lim hamda ijtimoiy sohaga kuchli ta'sir o'tkazdi. O'sha davr ko'zga tashlangan islohotchilaridan biri Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) 20 yildan ortiqroq vaqt mobaynida, avval, konservativ islom fikriga hamda mahalliy musulmon elitasi urf-odatlariga, so'ngroq esa yangi o'rnatilgan sovet hokimiyatining qattiq dogmatizmiga qarshi kurashdi.

Fitrat faoliyatining asos nuqtasini – negizida ijtimoiy ozodlik g'oyasi bo'lgan erkinlik va demokratik davlatning yangi konsepsiya-

¹ *Abdirashidov Zaynabidin Sharabidinovich* – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: zabdirashidov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6869-4315

Iqtibos uchun: Abdirashidov, Z. Sh. 2021. "Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 30-53.

si tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida, uning siyosiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Fitrat Buxoroda an'anaviy islomiy ta'limni oldi. Shu sababdan ham o'z davrining boshqa ziyolilari kabi uning 1910-yil Istanbulga ketguniga qadar davrini qamrab olgan ilk siyosiy, ijtimoiy va g'oyaviy sohalaridagi faoliyati boshdanoq islomiy tafakkurga asoslandi. Turkiyada o'qish va turli ishlar bilan shug'ullangan yillarda esa (1910- 1914) uning fikriy o'sishi islom tafakkuriga yanada kuchliroq bog'landi. Aynan ana shu davr Fitratning dunyoqarashi shakllanishida katta rol o'ynaganligini ta'kidlash mumkin.

Fitrat hayoti va ijodi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan juda keng o'rganilganiga qaramay, uning ilk faoliyati va tarjimai holi, xususan, Turkiyada o'tkazgan yillariga oid ko'p savollar o'z javobini topgani yo'q. Ayni mana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda Fitratning ilk faoliyat davri hamda hayot yo'liga oid ayrim masalalarni yoritishga ehtiyoj seziladi. Ayni ehtiyoj Fitratning hayot yo'liga doir tarixiy, biografik va turli ilmiy ma'lumotlarni qayta tahlil qilish, jumladan, uning 1910-yilga qadar biografiyasiga doir ma'lumotlarga aniqliklar kiritishni taqozo etadi.

Fitrat yigitlik vaqtida islomning besh ruknidan biri bo'lgan Haj amalini ado etdi. U haj safariga biror kishining hamrohligisiz chiqdi. Fitrat Haj safaridan Buxoroga qaytishda moliyaviy muammolar tufayli bir muddat Hindistonda qolib yashashiga to'g'ri keldi. Hind xalqining turmush tarzi va ijtimoiy ahvoli ko'p hollarda Buxoro xalqi yashash tarzi bilan o'xshash bo'lganligi sababidan bo'lsa kerak, Hindiston hayoti Fitratning dunyoqarashida chuqur iz qoldirganligini keyingi davrda yozgan asarlaridan sezish qiyin emas. Fitratning islomchilik g'oyalariga berilib ketishi va qiziqishi uning ilk faoliyat davrini belgilab berishi barobarida bu g'oyaning uning fikrlash tarziga ta'sir etishi, asosan, Fitratning musulmon Sharqidagi ahvolga bo'lgan qarashlari bilan chambarchas bog'liqlik kasb etadi. Bundan tashqari, Fitratning 1910-yillar boshlaridagi jadidchilikka bo'lgan munosabati masalasida ham ayrim o'rinlarga aniqlik kiritish lozim. Bu masala esa, asosan, Fitratning Turkiyaga ketishi, sabab va oqibatlari yoritilgan manbalar hamda ilmiy tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali hal qilinishi mumkin. Shu o'rinda, ayrim zamonaviy tadqiqotchilarning ta'kidlashlariga qaramasdan, Fitrat Turkiyaga hech qanday moliyaviy ko'maksiz ketganligi o'z isbotini topganligini aytib o'tish mumkin. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilarning Fitratning Turkiyaga siyosiy sabablarga ko'ra "qochib ketgan"ligi borasidagi fikrlari ham tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilinishi lozim.

Fitratning Istanbuldagi faoliyati masalasi hali hanuz o'z yechimini topmay kelayotgan masalalardan biri. Islomchilik g'oyalari bilan qiziqishi Fitratni Istanbul so'fiy doiralariga yetakladi. U bu shaharda yashagan ilk yilda "Hikmat" nashriyot uyiga hamda bu muassasa tashkilotchisi Ahmad Hilmiga juda yaqin bo'ldi. Bu yaqinlikni Fitratning "Hikmat" gazetasidagi faol ishtiroki bilan izohlash mumkin.

Bundan tashqari, uning Istanbulda o'qishi masalasi ham yuqoridagi kabi o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri. Shuningdek, buxoroliklarning Istanbuldagi xayriya jamiyati hamda Fitratning bu jamiyat tashkili va faoliyatidagi ishtiroki masalasining hal qilinishi ham uning faoliyatiga ancha oydinlik kiritishi mumkin. Mavjud ilmiy tadqiqotlar va ko'plab manbalar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda Fitrat jamiyat tashkili-da ishtirok etmaganligi, ammo uning faoliyatida asosiy rol o'ynaganligi mazkur kichik tadqiqot asnosida yetarlicha ochib berilganligini ham aytib o'tish joiz.

Hozirgi Fitratshunoslikdagi muammolar va ularning tahlili Markaziy Osiyo jadidchiligi, xususan, uning asosiy g'oyaviy yetakchilaridan biri bo'lgan Fitrat hayoti, ijodi va faoliyati bilan bog'liq yechimini topmagan talaygina muammolar yoki munozarali masalalar borligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Maqola yakunida chiqarilgan xulosalar Fitrat va fitratshunoslikka oid ma'lum o'zgartirishlar kiritadi. Ayni ana shu o'zgartirishlar Fitratning ilk faoliyat davri, xususan uning Istanbuldagi faoliyatiga tegishli aniq javoblar aytishga imkon yaratadi.

Jadidchilikka ilk qadam

Abdurauf Fitrat, shubhasiz, XX asr birinchi choragi Markaziy Osiy ziyolilarining eng ko'zgan ko'ringan va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan vakillaridan biri hisoblanadi. U yozuvchi, shoir, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g'oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan.

Fitrat 1910-yilga qadar Buxoro jadidlarining ishlariga umuman aralashmagan. Bu, ayniqsa, maktab masalasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fitrat, o'zi yozishiga qaraganda, dastlab jadidlarga qarshi bo'lgan [Fitrat 1929] va ayrim kishilarning ta'siri ostida¹ [Бурхоннов 1993, 116-117] unda yangi usul maktabi va, umuman, jadidchilikka

¹Mashhur o'zbek bastakori Mutavakkil Burxonov o'z xotiralarida yozishicha, Fitratning Istanbulga safarga chiqish qaroriga bevosita uning tog'asi Mahzar Maxdum ta'sir o'tkazgan.

moyillik paydo bo'lgan.

Fitrat, Edvard Olvortning ta'kidlashicha, "Buxoro madrasasini a'lo darajada bitirganidan keyin Behbudiyning yaqin izdoshiga aylandi" [Allworth 1990, 144]. Lekin Olvortning bu ta'kidiga u qadar qo'shib bo'lmaydi. Fitrat Buxoro talabalarining "eng fozili" bo'lishiga qaramay 1910-yilda ham u Buxorodan tashqarida umuman noma'lum shaxs edi. Olvort o'z tahlili davomida "Fitrat Markaziy Osiyodagi katta muammolar o'ngida diniy ulamoning naqadar tushkunligi hamda uning bu vaziyatdagi mavjud imkoniyatlari borasida keskin fikrlar aytdi", deb ta'kidlaganda, 1911-1912-yillar davomida Turkiyada o'zining birinchi asarlarini nashr qildirgan va u bilan mashhurlikka erishgan Fitrat haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari, ayrim manbalarda keltirilishicha, Fitrat o'zining ustoz Behbudiya ergashib jadidchilik harakatiga qo'shilgan [Borjian 1999, 564-567]. Ammo, bu fikrni tasdiqlaydigan ma'lumotlar hanzuz yo'qligi uchun uni asossiz deyish mumkin.

Ushbu yil (1910 – Z.A) fikri ochiqlarning biri Abdurauf Fitrat edi. Bu zot Buxoro talabalarining eng mustaidi, eng fozili sanalar edi. Mirzo Abdulvohid maktabiga ko'b qotishib yurgan bo'lmasa ham, mudarris Abdulqodir Maxdum vositasi ila "Siroti Mustaqim"² majallasini mutolaa qilib fikri ochilg'on va Istanbul safari uchun hozirlik ko'rub yurgon edi. Bir bahona ila Buxoroning bir qism viloyalarini sayohat qilib yaxshigina ma'lumot to'blab mazkur safarga hozirlandi [Ayni 2010, 101].

Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixiga materiallar" kitobidan keltirilgan yuqoridagi ko'chirmadan Fitrat Istanbulga safariga qadar islomchilik g'oyalari bilan qiziqqanligi va u haqidagi asosiy ma'lumotlarni 1908-yilgi Konstitutsiyaviy inqilobdan keyin Turkiyadagi islomchilikning asosiy nashrlaridan biri bo'lgan "Siroti Mustaqim" jurnalidan olganligini bilish mumkin. "Siroti Mustaqim" jurnali buxorolik o'quvchilarini, ayniqsa, madrasa talabalarini musulmonlar ijtimoiy-siyosiy hayotida islohotlar o'tkazish zarurati haqidagi fikrlari bilan o'ziga jalb qilgan edi. Bundan tashqari, jurnal o'tkazilishi lozim bo'lgan islohotlarni va bu bilan bog'liq mulohazalarini Qur'on va payg'ambarning hadislarini bilan dalillashi ham jurnalning Buxoroda keng tarqalishi sabablardan biri sifatida qarash mumkin [Ayni

²"Siroti Mustaqim" jurnali 1908-yil 14-avgustda nashr qilina boshlagan. Turkiyadagi Ikkinchi konstitutsion inqilob yillarida jurnalning bosh muharriri sifatida mashhur shoir Mehmet Akif Erso'y faoliyat olib borgan. Haftada bir marta nashrdan chiqqan jurnal asosan diniy yo'nalishdagi va islomchilik g'oyalari aks etgan materiallarni chop qilgan. 1912-yil 8-martdagi 183-sonidan boshlab jurnal nomini "Sabilur Rashad"ga o'zgartirdi.

2010, 43; Komatsu 2001, 167-180].

Timur Xo'jao'g'lining ta'kidlashicha, Fitrat Istanbulga kelmasidan oldin usmonli turk ziyolilari orasida keng tarqalgan islomchilik va turkchilik mafkurasi hamda qarashlari borasida batafsil ma'lumotga ega va bu mafkuralarning ta'siriga tushgan edi [Kocaoğlu 2003, 402]. Fitrat diniy islohot tarafdori bo'lgani holda va, ehtimol, u, Ayniy ta'kidlaganidek, "buxorolik talabalarning eng mustaidi va eng fozili" sifatida Marag'oiyning yuqoridagi asari bilan ham juda yaxshi tanish bo'lgan. Adib Xolidning aniqlashicha, Fitratning ilk asarlari bo'lgan "Munozara" va "Hind sayyohi"da ham uslub jihatidan, ham mazmunan eronlik Zaynalobidin Marog'oiy (1837-1910) tarafidan yozilgan "Sayohatnomai Ibrohimbek" asarining kuchli ta'siri kuzaatiladi [Khalid 2005, 217]. Shu sabab ham ta'kidlash kerakki, "Siro-ti Mustaqim" jurnali va "Sayohatnomai Ibrohimbek" kabi boshqa manbalardan "o'zlashtirilgan" g'oyalar Fitratning XX asr birinchi o'n yilligi boshlaridagi faoliyati va ijodining asosiy yo'nalishini belgilab berdi. Boshqacha aytganda, Fitrat ijodining bu bosqichi ayrim tadqiqotchilar tomonidan "gumanistik hurfikrlilik" davri deb ham baholandi [Владимирова 2011, 133].

Turkiyaga safar

Istanbulda azaldan buxoroliklar jamoasi mavjud edi. Ammo XX asrning boshlarida Istanbulga buxoroliklarning yangi avlodi kela boshladi. Adib Xolid ta'kidlaganidek, Istanbul buxoroliklar uchun maqbul va qo'shni Eronga qaraganda talabalar uchun imkoniyatlari keng va zamonaviyroq deb qabul qilingan edi [Khalid 2005, 215].

Fitratning o'gay qizi Sevara Karomatillaxo'jayevaning yozishicha, Fitrat o'smirlik yillari haqida eslashni va gapirib berishni unchalik xush ko'rmagan. Ammo, ba'zan kechki taomdan so'ng biroz bo'sh vaqt bo'lsa, o'tmish yillarining uzuq-yuluq voqealarini eslardi. Shunday xotiralardan birida Fitrat quyidagilarni gapirib berganligini eslaydi:

Mening o'smirlik chog'larim juda qiyin kechgan. Ayniqsa, Istanbuldalik paytim menga juda qiyin bo'lgan. Otam mening u yerda o'qishimga qarshi edi. Shunga qaramasdan, men Istanbulga ketdim. Otamning ra'yiga qarshi borganim uchun, u menga pul yubormay qo'ydi. Istanbuldaligimda cho'ntagimda bir tiyinsiz qoldim. Keyin, tirikchilik uchun duch kelgan ishni qilishimga to'g'ri keldi. Bir muddat bozorda qovun sotib olib ularni tiliklab qayta sotdim. So'ngra tamaddixonada ishladim [Кароматиллахўжаева 1996, 70].

Fitratning otasi oiladan ketganidan keyin uni moddiy jihat-

dan ta'minlab turganligi aniq. Chamasi u va o'g'illari orasida qizg'in yozishma bo'lgan. Shu tariqa Fitrat otasi bilan aloqada bo'lgan va uni o'z rejalari, jumladan, Istanbulda o'qishi haqida ham xabardor qilgan.

Hamidulla Boltaboyev Fitratning o'gay opasi Mahbuba Rahim¹ning [Кароматиллахъжаева 1996, 66] xotiralariga asoslanib ta'kidlashicha, Fitrat Istanbulga yetib olgunga qadar savdo kemasi-da yuk tashuvchi bo'lib yollangan; [Istanbulda] tahsili davomida esa madrasa va masjidda hovli supuruvchilik qilib kun ko'rgan; undan tashqari, akasi Abdurahmondan ba'zida moddiy yordam ham olib turgan [Болтабоев 2007, 18].

1910-yil² bahorida Fitrat do'sti Muqimiddin bilan Buxorodan Istanbulga Eron orqali jo'nab ketgan [Togan 1942-1947, 354; Айний 1987, 83, 101]. Ba'zi tadqiqotlarda Fitrat Istanbulga 1909-yilning kuzida ketganligi ta'kidlanadi [Болтабоев 2007, 15-33]. Lekin bu tadqiqotlarda mazkur sanani tasdiqlovchi isbot va manbalar keltirilmaganligi sabab bu faktni qabul qilish qiyin.

1910-yilning yanvar oyida Buxoroda shia va sunniylar orasida qonli to'qnashuv sodir bo'ladi. Bu xunrezlikning tafsilotlari ushbu voqealarning bevosita guvohi bo'lgan Sadriddin Ayniy tomonidan batafsil bayon etilgan [Ayni 2010, 71-100]. Fitrat ham bu hodisalarni xotirlab quyidagilarni yozadi:

Shanba kuni madrasadan chiqa turib Toki Telpakduzon (do'ppido'zlar mahallasi)ga keldim. U yerda ellikka yaqin talaba nimanidir muhokama qilardi. Men ularning suhbatlarini eshitdim va Samarqand darvoza ortida eronliklar va shialarning bayramini tomosha qilgani kelgan bir necha mahalliy talabalar o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lganligini angladim. Bu hodisa 1328-yil Muharram oyining 10-kunida sodir bo'lgan edi [Фитрат 1991, 19-20].

Davomida Fitrat sodir bo'lgan voqealarni tafsilotlari bilan bayon qiladi [Фитрат 1991, 20-23]. Bu fakt, yuqorida keltirilgan ta'kidlar, ya'ni Fitrat Buxorodagi shia-sunniy qonli to'qnashuvi paytida Turkiyada bo'lgan degan fikrni rad qiladi [Болтабоев 2007, 19].

Sadriddin Ayniy Fitrat va boshqa buxoroliklarning safari tafsilotlarini shunday bayon qiladi:

Nizomiddin Urganjiyning birodarzodasi Muqimbek Abdurauf ila dars sherigi va yaqin do'st edi. Muqimbek amakisi ila oralari buzuq

¹ Mahbuba Rahim Fitratning otasi Abdurahimning marg'ilonlik oilasidan bo'lgan qizi.

² Ayniy Buxoro inqilobi to'g'risida yozgan kitobining bir bo'limida (83-bet) Fitratning Istanbulga ketish sanasini 1911-deb ko'rsatadi. Bu nashr xatosi bo'lsa kerak.

bo'lib, Chorjo'yda mahbus hukminda edi. Bu ham Fitrat bilan birga Istanbulga bormoqchi, lekin qochmoq uchun munosib bir fursatni ko'zlamakda edi.

Shiiy-sunniy fojeasi munosabati ila Mirzo Urganjiy Buxorog'a kelganligi sababli Muqimbekka fursat musoid bo'ldi. 1910-yil bahor faslinda Abdurauf ila Muqimbek Eron yo'li bilan Istanbulg'a qarab qochdilar [Ayni 2010, 101].

Ayniyni bu so'zlarini ayrim tadqiqotchilarni chalg'itgan ko'rinadi. Ular Ayniy keltirgan ma'lumotni noto'g'ri talqin qiladilar va Fitrat shia-sunniy ziddiyatidan keyin hukumat ta'qibidan qo'rqib Turkiyaga qochib ketgan, deb ta'kidlaydilar [Умнияков 1927, 88; Khan 2003, 119]. Bunday dalillar, fikrimcha, tarixiy isbotga ega emas. Agar Fitrat Buxorodagi bu voqealarning faol ishtirokchisi bo'lganida zamondoshlari tomonidan yozilgan asarlar yoki boshqa tarixiy manbalarda, albatta, uning ismi qayd qilingan bo'lar edi. Afsuski, biz hech bir manbada uning hukumat ta'qibi sabab Turkiyaga qochib ketganligini tasdiqlovchi faktlarni uchratmaymiz.

Ayniy shia-sunniy g'alayonlari va undan keyingi voqealar kechishini tavsif qilar ekan, qaydlarida Fitrat ismini qalamga olmaydi. U o'z asarida Buxoroning fikri ochiq yoshlari bu qonli xunrezlikdan keyin yangi maktab va islohotlar g'oyasi targ'iboti uchun birlashganliklarini qayd etadi va ushbu targ'ibot guruhining asosiy a'zolari ismlarini keltiradi. Bu ro'yxatda Fitratning ismi yo'q [Ayni 2010, 85-87]. Har holda Buxoro hukumati ikki raqib tomonlarni yarashtirishib, xunrezlikka chek qo'yishga va, hatto, voqealarni chuqurlashtirmaslik uchun voqea ishtirokchilarini jiddiy ta'qib qilmaslikka harakat qilgan [Россия – Средняя Азия 2011, 408-412].

Yuqorida keltirilgan faktik dalillardan shuni xulosa qilish mumkinki, Fitrat Istanbul safariga katta mablag'siz va biror bir moliyaviy tashkilotning yordamisiz yo'lga chiqqan. Bu esa ko'p tadqiqotchilarning Fitrat Buxoro islohotchilarining yoki "Shirkati Buxoroyi Sharif" kompaniyasi yoki "Tarbiyai Atfol" xayriya jamiyati moddiy ko'magida Turkiyaga o'qishga yuborilgan degan ta'kidlarini inkor qiladi [Zenkovsky 1955, 37; Khalid 2005, 216; Болтабоев 2007, 15-18; Қосимов 1994, 73-74; Allworth 1994, 198; Ershahin 1999, 237; Dalimov 2008, 69; Biçakci 2006, 152; Эргашева 2002, 38-39; Абдужалилова 2005, 19; Ахатова 1998, 24-25; Ғойибова 1990, 43].

Istanbul davri

Yuqorida qayd qilinganidek, Fitrat Istanbulga 1910-yilning

bahorida Eron orqali ketdi. Hozirga qadar manba va ma'lumotlarning kamligi sabab Fitrat Istanbulga borganidan keyin aslida nima bilan shug'ullanganligi noma'lumligicha qolmoqda. 1914-yilda Behbudiy Fitratni "Dorul Voizin" talabasi sifatida tilga oladi [G'uljadan yuborilgan ionalar, 1914]. Fitrat hayoti va ijodini o'rgangan tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha esa, u "Madrasatul Voizin" [Allworth 2000, 12; Komatsu 1993, 3; Khan 2003, 119; Ershahin 2008, 22; Болтабоев 2007, 24] yoki Istanbul Universitetida [Қосимов 1994, 74; Kara 2002, 125; Kocaoglu 2003, 402] o'qigan.

Agar "Madrasatul Voizin" 1912-yilning oxirida ta'sis etilgani inobatga olinsa, u holda Fitrat 1910-yilning o'rtasidan 1912-yilning oxirigacha bo'lgan oraliqda Istanbulda nima nima bilan shug'ullangan, degan savol tug'iladi?

1910-yil yozining boshlarida Istanbulga kelgan Fitrat, chamasi, vaqtinchalik Sultontepadagi Naqshbandiy O'zbeklar takkasida istiqomat qilgan. Har holda Hamdulla Boltaboyev O'zbeklar takkasining 1911-yilgi¹ qayd kitobida Fitratning nomini ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi [Болтабоев 2007, 24].

Yosh Fitrat Istanbuldagi hayotining ilk davrida islomchilik g'oyalari faol muhokama va targ'ib qilinadigan muhitga tushdi. Istanbulda bo'lgan davri mobaynida Fitrat so'fiylik ta'limoti bilan sug'orilgan islomchilik g'oyalari ustunlik qilgan doiralarga yaqin edi. Adib Holidning ta'kidlashicha, Fitrat so'fiy turk yozuvchisi, mutafakkir va "Hikmat" nashriyot uyining ta'sischi Shahbandarzoda Ahmet Hilmiy²ga yaqin bo'lgan [Khalid 2000, 383].

Takkada istiqomat qilgan musofirlar orasida uning hovlisi, yaqin-atrofi tozaligiga hamda oshxonasida yordamlashadigan odamlar ham bo'lgan. Lale Janning ta'kidlashicha, takka qayd daftarida ro'yxatdan o'tgan musofirlar takkaga yaqin bozor, karvonsaroy va boshqa shu kabi joylarda turli yumushlarni bajaruvchi yoki savdo ishlariga yordamlashuvchi sifatida faoliyat olib borgan. Takka musofirlarining bu kabi faoliyatlari Istanbulning eski shahar qismi bilan takka o'rtasidagi o'ziga xos munosabat tashuvchi bog'liqlik shakllanishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, takkada uzoq muddat qolgan musofirlar takkaga yangi joylashgan boshqa shaxslarga yashash joyi va kun kechirish uchun ish topishga yordam

¹Hamidulla Boltaboyev 1329-hijriy yilni 1909-yilga to'g'ri keladi deb ko'rsatadi. Aslida esa 1911-yilga to'g'ri keladi.

²Ahmet Hilmiy (1865–1914), faylasuf, so'fiylik qarashlari ta'sirida asarlar yozgan. 1910-yili "Hikmet" jurnalini tashkil qilgan. O'sha yili asosan diniy mazmundagi adabiyotlarni chop qilishga mo'ljallangan "Hikmet Matbaasi Islomiyasi" nashriyatiga asos solgan.

beruvchi diaspora klasterlarini tashkillashtirishga muvaffaq bo'lgan [Can 2012, 388-391].

Fitrat Istanbulda tirikchilik uchun turli joylarda ishlashga majbur bo'lgan. Ehtimol, u ham yuqorida tilga olingan diaspora klasterlarining yordamidan foydalangandir. Chunki u qisqa muddat ichida bozorda mayda-chuyda savdosi bilan shug'ullangan, madrasa va masjidda hovli supuruvchilik qilgan, oshpazning yordamchisi bo'lib ishlagan va hokazo. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda dastlabki yilda katta shaharda "cho'ntagida bir tiyini" bo'lmagan Fitrat asosan tirikchilik qilish uchun turli joylarda ishlagan va kechki paytlarda bo'sh qolgan vaqtlarida madrasaga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rgan, deb taxmin ham qilish mumkin. Va, eng asosiysi, Fitrat 1910-yil davomida o'zining mashhur "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlari ustida ishlagan. 1911-yili Fitrat, qiyin moddiy ahvoliga qaramasdan, turli joylarda ishlab topgan pulidan jamg'argan mablag'iga Ahmad Hilmiyning "Hikmat" nashriyotida o'zining yuqorida nomi zikr etilgan ikki badiiy asari va "Sayha" she'riy to'plamini chop qildi.

Fitrat holat va vaqtning qulayligidan unumli foydalanib, Buxoroda qoralaganlarini qayta ishlagan ko'rinadi. Zero u Istanbulga safar oldidan, Ayniy yozganidek, Buxoro amirligining bir necha viloyatlariga safar qilgan va ma'lumotlar jamlagan. Albatta Fitrat jamlagan ma'lumotlar mamlakatdagi haqiqiy ahvolni yaqqol ko'rsatib berishi kerak edi. Shu sababdan ham u o'z asarlarida tasvirlagan Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli haqiqatga juda yaqin. Fitratning ilk asarlari nafaqat adabiy asar sifatida, balki tarixiy manba sifatida ham o'ta qimmatli. Fitratning safargacha bo'lgan vaqtda jamlagan ma'lumotlari uning Istanbulga ketishidan oldin nima haqda yozishi va qanday yozishini juda yaxshi bilgan, deb aytish mumkin. Fitrat Buxoroda ekan yozilajak asarlarining syujeti va yo'nalishini aniq bilgan hamda muhim qismlari qaydga tushirilgan qoralamalari bo'lganligi ehtimoldan holi emas. O'z davrning diniy, falsafiy va siyosiy fikrining Fitrat dunyoqarashiga ta'siri uning 1910-1915-yillar oralig'ida yozgan asar va maqolalarida yaqqol ko'rinib turadi. Fitratning islomchilik fikri va g'oyalarga qattiq berilishi, ehtimol uni zamonaviy islom da'vatchilarini tayyorlash maqsadida yangidan tashkil qilingan "Madrasatul Voizin"ga yetaklagandir.

"Madrasatul Voizin" – isloh qilingan ta'lim tizimiga asoslangan birinchi oliy o'quv yurtlaridan biri sifatida 1912-yil 28-dekabrda Istanbulning Sogukcheshme mahallasidagi "Vani Efendi Madrasasi" o'rnida ochilgan [Ergün 1982, 86; Akman 2007, 86].

Manbalarda qayd etilishicha, 1913-1914-o'quv yili uchun 48 nafar talaba, shu jumladan, 10 nafar xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan musulmonlarni qabul qilish haqida e'lon berilgan [Ergün 1982, 86]. Fitratning "Madrasatul Voizin"ga qachon o'qishga kirganligi masalasi manba va ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi uchun hamon muammoligicha qolmoqda. Har holda, u madrasaga kirish uchun yuqorida qayd etilgan barcha talablarni bajargan va qiyin kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib "Konstantinopol "Madrasatul Voizin" diniy ta'lim muassasasi"ning buxorolik birinchi talabasi bo'lgan [Валидов 1916, 261]. Lekin 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi Fitratga ushbu madrasani tamomlashga imkon bermadi. 1914-yilning o'rtalarida Istanbulda tahsil olayotgan aksar talabalar qatorida Fitrat ham Buxoroga qaytib keldi.

Fitrat madrasadagi o'qishini tamomlay olmadi. Biroq Buxoro talabalarining "eng fozili" sifatida egallagan bilimlari, madrasaga kirish uchun tayyorgarlik va tahsil davomida olgan qo'shimcha malakalari Fitratga ulkan intellektual boylik zaxirasini berdi. Aynan Istanbulda o'tkazgan yillari, Abid Xolid ta'kidlashicha, Fitrat "ochiq islomchilik"ning amaldagi eng a'lo namunasi bo'lgan sakkizdan ortiq asarlarini yozdi [Khalid, 2005, 217]. Bundan tashqari, u islomchilikning Ahmet Hilmiy, Mehmet Akif, Abdurashid Ibrohim kabi nufuzli g'oyaviy rahnamolari bilan bevosita muloqot qilish va ularning asosiy asarlari va g'oyalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Ushbu shaxslarning asosiy g'oyalari Fitrat yaratgan badiiy asarlarda bevosita aks etdi [Komatsu 2006, 279; Erşahin 2008, 24; Erşahin 1999, 237].

Buxoro xayriya jamiyatining asoschisi ..?

Ayniyning yozishicha, Buxoroda 1908-yilning oxirlarida jadidlar tomonidan yangi usuldagi maktab ochilganida, maktab tashkilotchilari ikki katta muammoga duch keldilar: maktab o'quvchilarni mahalliy tildagi darsliklar bilan ta'minlash va kelgusida ochiladigan maktablar uchun yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash. Bu muammolarni hal qilish maqsadida 1326-hijriy yil Rabiul Avval oyining birinchi kunida (1909-yil 23-mart) Ahmadjon Mahdum, Aminjon Mahdum, Usmon Xo'ja, Homid Xo'ja, Mulla Nizom Sobitiy, Abdurahmon Saidiy, Mirzo Abdulvohid va Sadriddin Ayniydan iborat guruh tomonidan "Shirkati Buxoroyi Sharif" kompaniyasi tashkil etildi. Shirkat ta'sischilari ro'yxatidan ko'rinib turganidek, tashabbuskorlar Buxorodagi yangi usul maktablarining tatar va mahalliy o'qituvchilari. Shirkatning dastlabki mablag'i har

bir ta'sischi a'zoning shaxsiy mablag'i hisobidan 77 so'm miqdorida shakllantirildi. Kompaniya 1909 va 1910-yilning yoz oylarida Sadridin Ayniy qalamiga mansub "Tartilul Qur'on" va "Tahzibus Sibyon" kitoblarini nashr qildi. Ushbu kitobchalar Shirkat tomonidan nashr qilingan birinchi va so'nggi maktab darsliklari edi [Ayni 2010, 50, 102].

"Shirkati Buxoroyi Sharif" o'z oldiga talabalarni xorijga o'qishga yuborish vazifasini qo'ymagan. Shirkat o'z ta'sischilaridan Usmon Xo'ja Po'lat Xo'ja o'g'li va Homid Xo'ja Mehriyni "maktab ishini tizimlashtirish va buxorolik yoshlar orasidan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash" maqsadida Bog'chasaroy va Istanbulga jo'natadi. Ayniy Usmon Xo'jani "yangi fikrdosh" va Homid Xo'jani esa "eski rafiq" deb tanishtiradi. Shirkat ta'sischilar tomonidan kelishilgan va tasdiqlangan rejaga asosan Usmon Xo'ja va Homid Xo'ja maktab ishi va maktab tashkil etish tizimini o'rganib qaytishlari kerak edi [Ayni 2010, 51; Khalid 2000, 37].

"Shirkati Buxoroyi Sharif" tomonidan amalga oshirgan ishlari yuqoridagi qayd qilinganlar bilan cheklangan. 1909-yilning oxirida jadid maktabi atrofidagi janjaldan keyin Buxoro hukumati ushbu maktabni yopishi hamda 1910-yil yanvar oyidagi sunniylar va shialar o'rtasidagi xunrezlik Buxoro jadidalarini sarosimaga solib qo'ydi. Chunki tajovuzkorona kayfiyatdagi mutaassib ulamo ularni qattiq ta'qib qila boshladi [Ayni 2010, 70-71].

1910-yil davomida "Shirkat" faqat yangi usul maktablari tizimini yaratishga qaratilgan ishlarnigina amalga oshirishga harakat qildi. "Shirkat" ta'sischilarining asosiy qismi yil oxiriga kelib tashkil etilgan "Tarbiyai atfol" jamiyatiga qo'shildi. Ushbu jamiyat a'zolari ulamo va hukumatning ta'qibi tufayli xufyona faoliyat olib borishga majbur bo'ldi. "Tarbiyai atfol" jamiyati 1328-hijriy yil Zulqa'da oyi-ning 28-kunida (1910-yil 1-dekabr) Mirzo Abdulvohid Munzim, Homid Xo'ja Mehriy, Ahmadjon Mahdum Hamdiy, mudarris Hoji Rofi' va Mukammiliddin Mahdum Burhon o'g'li tomonidan tashkil etilgan [Ayni 2010, 117].

Aleksandr Samoylovichning yozishicha, *Yosh buxoroliklarning birinchi guruhi (Buxoro jadidlari keyinchalik o'zlarini shunday atashgan – Z.A.) birinchi yangi usuldagi maktab atrofida shakllandi. Keyinroq, ayniqsa, 1910-yilgi sunniy-shia to'qnashuvidan so'ng bu harakatga yangi kuchlar kelib qo'shila boshladi. Yosh buxoroliklar jiddiy ishlarni ochiqchasiga olib borishlari uchun imkoniyat yo'q edi va, shu sababli, 1910-yilda ta'sis qilingan "Tarbiyai atfol" jamiyati xufyona faoliyat olib borishga majbur edi. Jamiyat faqat ma'rifatchilik*

ishlarini amalga oshirishni maqsad qilgan edi. Yangi usul maktablari mutaassiblar va hukumat tomonidan qattiq ta'qib qilingani sababidan Jamiyat yashirincha faoliyat olib borishga majbur qoldi [Самойлович 1922, 98].

Ayniy esa Jamiyat ehtiyotkorlik yuzasidan o'z faoliyatini faqat o'quv maqsadlari bilan cheklaganligi, ammo aslida uning a'zolari islohotlar uchun siyosiy tashviqot olib borganligini yozadi [Ayni 2010, 117]. Ayniyni ta'kidlashicha, Jamiyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1) xalqni ma'rifatli qilish va har qanday vaziyatda ham turli adabiyotlarni ommalashtirish;

2) xalqda urf bo'lgan va isrofgarchilik sanalgan marosimlar (motam, to'y-hasham va boshqa bazmlar, uloq, ko'pkari va hk.)ga qarshi kurash, ijtimoiy va madaniy ko'mak berish;

3) davlatga qarshi tashviqot (amir, qushbegi, bek, qozi, ruhoniylarga qarshi kurash) [Ayni 2010, 120-121].

Turkistonning ko'zga ko'ringan siyosiy arboblardan biri, Yosh buxoroliklar harakatining yetakchisi Fayzulla Xo'jayevning ta'kidlashicha, Jamiyatning to'liq dasturi quyidagi 5 banddan iborat bo'lgan va ular Jamiyatning asosi va maqsadini to'liq ifoda qilgan:

1) aholini maktablar va matbuot tashkil qilish orqali o'qitish, ommani kitob bilan ta'minlash;

2) madrasalarni isloh qilish, aholining dunyoqarashini o'zgartirish orqali mutaassib ulamoga qarshi kurash olib borish;

3) hukumat miqyosidagi korrupsiyaga qarshi kurashish;

4) Buxoroni zamonaviy davlatga aylanishiga ko'maklashish. Bunda, eng avvalo, amirning ijtimoiy va xususiy g'aznasi o'rtasidagi ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan davlat moliyaviy tizimini isloh qilinishi kerak edi;

5) diniy mazhablar o'rtasidagi adovatga chek qo'yish [Ходжаев 1970, 91].

Jamiyatning asosiy faoliyati buxorolik yoshlarni Istanbulga o'qishga yuborish va yangi usuldagi maktablarni tashkil qilishdan iborat bo'lgan. Bu xususida Sadriddin Ayniyni asarlarida batafsil tafsilotlarni topish mumkin [Ayni 2010, 118]. Shunga qaramay, Fayzulla Xo'jayev Ayniy bergan ma'lumotlar orasida yangi usul maktablarining Amirga qarshi siyosiy kurashga tayyorgarlikdagi ahamiyati, tuzumga qarshi kurash olib borishga yo'naltirilgan ishlarni tashkil-lashtirish hamda maktab ishiga jalb qilingan ota-onalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri olib borilgan tashviqot ishlari borasidagi fikrlar yo'qligini qattiq tanqid qiladi. Fayzulla Xo'jayev Ayniyni bu tarz-

da yozganini uning eski jadidlar guruhiga mansubligi sabab amirlik tuzumi bilan faol kurashish tarafdori bo'lmaganligi bilan izohlaydi va Ayniy tuzumga qarshi kurashni faqatgina ma'rifatchilik harakati bilan cheklaganlikda ayblaydi [Ходжаев 1926, 129].

Aleksandr Samoylovich Jamiyatga a'zolikka qabul qilinishi-ning o'ta og'ir shartlari sabab uni masonlik bilan qiyoslaydi. Samoylovich 1920-yillarda olib borgan tadqiqoti davomida hayotda bo'lgan Jamiyat a'zolarini qidirib topadi va ulardan Jamiyat va uning faoliyati to'g'risida ko'proq ma'lumot olishga intiladi. Uning yozishicha, Jamiyat a'zolari bilan bo'lgan muloqotda ular masonlik bilan Jamiyat ta'sis etilgandan keyingina xabar topishgan. Samoylovich olgan ma'lumotlari natijasida, maxfiy tarzda faoliyat olib borgan Jamiyatga yangi a'zolari qabul qilish shartlari masonlikka qabul qilish shartlari bilan mutanosib kelgani sabab Jamiyat ta'sischilarining masonlikdan xabarlari borligini ta'kidlaydi [Самойлович 1922, 98]. Bunday xulosaga kelgan Samoylovich haq edi, deb taxmin qilish mumkin. "Tarbiyai atfol"ning asosiy ta'sischilaridan Abdulvohid Munzim va Sadridin Ayniy 1900-yildayoq Ahmad Donishning "Navodirul vaqoye" asari orqali masonlik bilan yaxshi tanish edilar [Айний 1960a, 40-42; Айний 1960b, 606-621; Allworth 2004, 3-4]. Munzim va Ayniy mazkur kitobni Sharifjon Qozi¹ uchun nusxa ko'chirish mobaynida uning mazmuni, xususan, Hindistondagi masonlik tarixi bilan tanishgan edilar [Adhami 1999, 385-391].

1909-yil oxirlarida Istanbulda "Buxoro Ta'mimi Maorif Jamiyati Xayriyasi" tuzildi [Buxoro Ta'mimi Maorif, 1327]. Jamiyatning mazkur Nizomnomasi turli yillarda qisqartirilgan shaklda rus, fransuz va ingliz tillariga tarjima qilingan [Аршаруни 1931, 133-135; Carrère 1966, 286-288; Carrère 1988, 194-196; Kocaoğlu 2001, 467-483; Болтабоев 2007, 255-258]. Jamiyat Nizomining muqovasida uning 1327-yil Shavval oyining 11-kunida tashkil etilgani ko'rsatilgan. Bu 1909-yil 26-oktabr²ga to'g'ri keladi.

Bu Xayriya jamiyati Turkiston politsiyasi mansabdorlari tomonidan Turkiston va Buxoro yoshlariga islomchilik ruhidagi ta'lim berishni maqsad qilgan tashkilot sifatida baholandi [Расы и народы 2006, 282]. Mazkur jamiyat, uning Nizomida yozilishicha, Turkistonda, xususan, Buxoroda bilimni ommalashtirish va maktablar ochish uchun tashkil etilgan. Jamiyat o'z oldiga hech

¹Muhammadsharif Maxdum Sadri Ziyo (1867 – 1932), shoir, tarixchi. Buxoro amirligining turli viloyatlarida qozilik qilgan (1893 – 1920). 1917-yil Buxoro Qozi Kaloni etib tayinlangan.

²Sana tabdili quyidagi manbada amalga oshirildi: <http://www.ttk.gov.tr>

qanday siyosiy maqsad qo'ymagan va o'lkadagi biror bir siyosiy kuchni qo'llab quvvatlamagan. Ammo Jamiyat homiyligida tahsil olgan talabalar o'qishini tamomlagandan so'ng Jamiyat rahbariyati uni qayerga yuborsa o'sha yerda faoliyat olib borishga majbur edi. Agar talaba bu shartni bajarishdan voz kechgan taqdirda u Jamiyat uning tahsili uchun to'lagan barcha mablag'ni qaytarishi kerak edi [Buxoro Ta'mimi Maorif, 1327, 6-7]. Jamiyatning talabalarga qo'ygan shartlari va Nizomda ko'rsatilgan maqsad va vazifalariga qaralsa, u Turkistonda Istanbuldagi Jamiyatning markaziy boshqaruv nazorati ostida faoliyat yuritadigan ziyoli qatlamni shakllantirishni ko'zlagan, deb aytish mumkin. Aynan mana shu holat Turkiston politsiya Departamentini xavotirga solgan. Ayniy yozganidek, manfaatparast mutaassib ulamo ishning bu yo'sinda borishidan foydalanib qolgan. Ulamo xayriya jamiyatlari davlatga qarshi tashviqot olib boradigan siyosiy tuzilma; taraqqiyparvarlar turk gazetalarini o'qiydilar va Turkiya siyosatchilari bilan yashirin munosabatlari bor, degan iddaolarini doimiy tarzda tegishli idoralarga ariza berib turgan [Ayni 2010, 46].

Istanbuldagi Buxoro Jamiyati tashkilotchilariga keladigan bo'lsak, ularning nomi hech qayerda ko'rsatilmagan. Lekin asosiy tashkilotchilar, Gasprinskiyning fikriga ko'ra, Istanbulda muqim istiqomat qilayotgan turkistonliklar bo'lishgan (Istanbulda Buxoro jamiyati xayriyasi, 1909). Ko'pgina tadqiqotlarda, Fitrat Istanbuldagi Buxoro Jamiyatining asosiy ta'sischilaridan biri bo'lganligi ta'kidlanadi [Khan 2003, 119; Ershahin 2008, 22; Болтабоев 2007, 19-20; Allworth 1994, 198; Қосимов 1994, 74; Borjian 1999, 565].

Ayniyni ta'kidlashicha, Abdurauf Fitrat bilan bir qatorda mazkur Jamiyatga Muqimiddin, Sodiq Ashur o'g'li va g'uljalik Abdulaziz Afandi asos solgan. Shuningdek, mashhur tatar jurnalisti, jamoat va din arbobi Olimjon al-Idrisiy (1887-1945) ham ushbu Jamiyat ishida faol ishtirok etgan [Ayni 2010, 122]. Zamonaviy tadqiqotlarda mualliflar Ayniyni yuqoridagi va boshqa ta'kidlariga tayangan holda, Istanbuldagi Buxoro Jamiyatiga Abdurauf Fitrat va Usmon Xo'ja boshchiligidagi talabalar tomonidan asos solingan, degan fikrni ilgari suradilar. Bundan tashqari, bu tadqiqotlarda Istanbuldagi Buxoro Jamiyati "Tarbiyai atfol" jamiyatining bo'linmasi deb ta'kidlanadi [Togan 1942-1947, 354; Kocaoğlu, 2001, 20; Болтабоев 2007, 19]. Fikrimcha, bunday mulohazalar mantiqqa zid. Chunki Istanbuldagi Buxoro Jamiyatiga 1909-yilning oxirida asos solingan va Jamiyat Nizomida uning hech qanday bo'linmasi yo'qligi aniq yozib qo'yilgan [Buxoro Ta'mimi Maorif 1327, 8]. Taxmin qilish mumkin-

ki, Istanbulda Buxoro Jamiyati tuzilgandan so'ng u yerga buxorolik yoshlarni tanlab olish va o'qishga yuborish maqsadida Buxoroga Jamiyatning vakillari kelgan. 1910-yilning boshlarida Istanbulga birinchilar qatorida Usmon Xo'ja, uning ukasi Ato Xo'ja va Mahzar Mahdum Burhon Mahdum o'g'li yuborildi. Ulardan so'ng bahorda Fitrat va Muqimiddin Istanbulga yo'l oldi [Ayni 2010, 100-101].

Yuqorida qayd etilganidek, Usmon Xo'ja va Homid Xo'ja Mehriy Buxoroda jadid maktablari tizimini yo'lga qo'yish maqsadida turk ta'lim tizimini yaqindan o'rganib kelish uchun Istanbulga yuborilgan edi. Ular, ehtimol, Istanbulda bo'lgan ikki yoki uch oy mobaynida maktab tizimi bilan tanishdan tashqari ayrim boshqa ishlar bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Gap shundaki, "Shirkati Buxoroyi Sharif" ta'sischilari tomonidan kelgusida Buxoroda yangi usuldagi maktablarni ommalashtirish uchun yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlashdek jiddiy muammo turardi. Usmon Xo'ja va Homid Xo'ja Mehriy safarlari chog'ida aynan shu masalaga yechim ham topishlari kerak edi. Balki bu ikki buxorolik ziyoli Istanbuldagi tatar va qrim talabalari jamiyati [Volker 2002] vakillari bilan ko'rishishgan, o'z oldilariga qo'yilgan muammoni hal qilish yo'llarini muzokara qilishgan hamda Buxoroda tashkil etiladigan yangi maktablar uchun o'qituvchi yetishtirishni maqsad qilgan biror xayriya jamiyati tuzish borasida kelishuvga erishgan bo'lishlari mumkin. Ehtimoliy kelishuvga ko'ra, yuqorida nomi zikr etilgan va keyinchalik Jamiyatning faol a'zosi bo'lgan Olimjon al-Idrisiy "Buxoro Ta'mimi Maorif Jamiyati Xayriyasi"ni ro'yxatdan o'tkazgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Aynan shu sabab ham Jamiyat Nizomida ta'sischilarning nomlari ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin.

1910-yili Istanbulga kelgan va u yerda bevosita faoliyat olib borgan Usmon Xo'ja, uning ukasi Ato Xo'ja, Mazhar Mahdum Burhon, Fitrat va Muqimiddin buxorolik yoshlarni o'qishga yuborilishi, talabalarning joy, mablag' bilan ta'minlanishi kabi masalalar bilan bog'liq ishlarni hal qilishni maqsad qilgan "Buxoro Ta'mimi Maorif Jamiyati Xayriyasi"ning faoliyatini yo'lga qo'yish bilan shug'ullangan bo'lishlari mumkin. Bevosita Buxorodan Istanbulga talaba yuborish masalasini hal qilish maqsadida esa Jamiyatning, garchi Nizomida ochilishi ko'zlanmagan bo'lsa-da, Buxoroda bo'linmasini tashkil etish kun tartibiga chiqqan. Bu bo'linma, fikrimcha, "Tarbiyai atfol" nomi bilan tarixga kirdi va uning tashkilotchilari orasida, Ayniyni ta'kidlashicha, Istanbuldagi Buxoroliklar Jamiyatining ham a'zolari bor edi [Ayni 2010, 122].

"Tarbiyai atfol" jamiyati o'zi yuborayotgan talabalar orqali

Istanbuldagi Buxoro Jamiyati bilan aloqa bog'lab turgan. O'ta ehtiyotkorona yo'l tutish zarurati tufayli Jamiyat a'zolari o'z yozishmalarida maxsus koddan foydalandilar. Amirlik mansabdorlari va Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi vakillari yangi maktab tashkilotchilarini inqilobiy g'oyalar tarafdori deb hisoblaganliklari sababli, yuqorida yozilganidek, "Tarbiyai atfol" jamiyatiga a'zolikka qabul qilinadigan shaxslar o'ta sinchkovlab o'rganilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, "Buxoro Ta'limi Maorif Jamiyati Xayriyasi" buxorolik bo'lmagan boshqa shaxslar tomonidan tashkil etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan hamda Buxorodan 1910-yil boshlarida Istanbulga kelgan birinchi talabalar ushbu Jamiyat faoliyatini yo'lga qo'ydilar.

Xulosa

